

INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASIDA YANGI BOSQICH

Bobojonova I. Y.

A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili o'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, metod, CLIL, flipped classroom, kommunikativ, mazmun, bilim, ko'nikma, ijodkorlik, Blum taksonomiyasi, savodxonlik.

Abstract

В статье описаны способы формирования у учащихся навыков 21 века с использованием современных методов обучения английскому языку в общеобразовательных школах.


Ключевые слова: школа, метод, CLIL, перевернутый класс, коммуникативность, содержание, знания, умения, креативность, таксономия Блума, грамотность.

The article describes ways to develop 21st century skills in students by using modern methods of teaching English in general secondary schools.

Keywords: school, method, CLIL, flipped classroom, communicative, content, knowledge, skills, creativity, Bloom's taxonomy, literacy.

Bugungi kunda yurtimizda ta'limning har bir bosqichida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu albatta, bejizga emas, sababi chet tillarini o'rganish XXI asr yoshlari uchun dunyo miqyosida katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shu bois, hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlod orasida xorijiy tillarni xususan, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq, qiziqish, xohish kundan-kunga oshib bormoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalarida chet tillarini yanada chuqurroq o'qitish zamon talabiga aylanib qoldi. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, oxirgi yillarda respublikamizda chet tillarini o'qitish borasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori, "2020-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2022-2023 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 414-sonli buyrug'i[4] kabilarni keltirishimiz mumkin. Bu esa o'quvchilarga chet tillarini o'qitishda yangicha yondashuvlarga o'tishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan 2022-2023-yil o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta

ta'lim maktablarida 1-11-sinflar uchun ingliz tili fani bo'yicha Kembrij nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan "Guess what" va "Prepare" darsliklarini amaliyotga joriy etish belgilandi. Hozirda chet elda ta'lim olishni davom ettirish istagida bo'lgan o'smirlar tomonidan eng ko'p o'rganiladigan til, shubhasiz, ingliz tilidir.



Dunyoda eng ko'p o'rganilayotgan xorijiy tillar (manba: www.newsdle.com)


Yuqoridagi jadvalda ko'rib turganimizdek, 2022-yil holatiga ko'ra ingliz tili 1,5 milliard dunyo aholisi tomonidan o'rganilmoqda[5]. U bizga Oksford, Garvard, MIT kabi mashhur TOP-10 ilm dargohlarining eshigini ochadi. Bu esa o'qituvchilarga ingliz tilini o'qitishda yangi, samarali metodlar qo'llash va eng zamonaviy darsliklardan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada Prezident Administratsiyasi rahbari o'rinbosari Komil Allamjonov quyidagi fikrlarni ta'kidlagan: - "Men har doim bir gapni aytib kelaman. Albatta maktab binolari kerak va zarur, lekin undan ham oldin sifatli darsliklar, oddiy aytganda, ta'lim olish uchun kontent yaratish undanda zarur... Agar kontent sifatli, zamonaviy va kuchli bo'lsa bola palatkada o'tirib o'qisa ham bilimli bo'laveradi"[6].

O'zbekistonda o'quvchilarga XXI asrda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradigan ingliz tilini o'qitishning yangi bosqichi boshlandi. Shu maqsadda, ushbu yildan boshlab respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida Xalq ta'limi vazirligining Amerika Qo'shma Shtatlari Xalqaro Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "O'zbekiston Barkamollik uchun Ta'lim dasturi" loyihasi doirasida Kembrij nashriyoti (Cambridge University Press) tomonidan ishlab chiqilgan 1-11-sinflar uchun ingliz tili darsliklaridan foydalanish boshlandi. Ushbu kitoblar ingliz tili va tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha o'zbekistonlik va xalqaro ekspertlar tomonidan bizni ta'limimizga mosligi o'rganib chiqilgan va tanlangan.

Xo'sh, ingliz tilini o'qitishda qanday metodlar bugungi kunda kutilgan natija beradi? Qanday darsliklardan foydalanishimiz kerak? Ushbu savollarga yuqorida aytib o'tilgan Kembrij nashriyoti tomonidan ishlab chiqilgan "Guess what" va "Prepare" darsliklarini o'rganib tahlil qilganimizda javob oldik.


Keling endi, ushbu darslik qanday afzalliklarga ega va qaysi metodikalarni qamrab olgan shu haqida to'xtalib o'tsak. XXI asr - axborot va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan o'sayotgan davrda o'quvchilarga belgilangan bilimlarni yetkazib berish uchun o'qituvchilardan, albatta, yuksak mahorat bilan to'g'ri metodikalarni anlash talab etiladi. Kembrij darsliklarida quyidagi metodlar keltirilgan:

CLIL (Content and Language Integrated Learning)- mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bo'lib, ushbu metodikaga ko'ra o'quvchilar matematika, kimyo, biologiya, fizika, informatika, adabiyot, tarix kabi fanlarga oid mavzularni chet tilida o'rganishlari orqali ham ushbu fanlarga doir bilimlarini mustahkamlashadi, ham chet tilini qo'llashni o'rganishadi.




Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bu bir vaqtning o'zida yangi mavzuni ikkinchi til orqali o'rganish yondashuvidir. Masalan, o'quvchilar chet tilida o'qitilishi mumkin bo'lgan mavzular orqali nafaqat fan haqida ma'lumot olishadi, balki tegishli lug'at va til ko'nikmalariga ham ega bo'lishadi.

Communicative Language Teaching (CLT) – *kommunikativ til o'qitish*. Ingliz tilini o'rganishning bunday yondashuvi muloqot va tilni muloqot qilish vositasi sifatida ta'kidlanadi. Kommunikativ til yondashuviga ega bo'lgan darsliklarda o'quvchilarga nafaqat grammatika qoidalari yoki lug'at boyligini oshirish, balki umumiy til qobiliyatini mashq qilish va rivojlantirish imkoniyatini beradigan ko'plab mashqlar mavjud[2]. Ushbu darsliklarda grammatika va lug'at bo'yicha mashg'ulotlar mavjud, shuningdek, o'quvchilar uchun ushbu grammatika va lug'atdan foydalanib, bir-birlari bilan muloqot qilish uchun ko'plab imkoniyatlar berilgan, masalan, gapirishga oid mashqlar va loyihalar. Kommunikativ til o'qitish metodini ingliz tilini o'qitishda qo'llash jarayonida o'qituvchi rolining muhimligi bilan bir qatorda, o'quvchining ijodkorlik qobiliyati, tilining ravonligi, mustaqil ishlay olish ko'nikmasi kabilar ham rivojlanib boradi. Bu metoddagi tasodifiy tuzilgan mashqlar o'z ichiga mazmun, vazifalar, shakl, ma'no va uning qo'llanishi, grammatika hamda tushunchalarni qamrab oladi. Bular quyidagi jadvalda keltirilgan:




Flipped Classroom – teskari sinf, u o'quvchilar uchun sinfdan tashqarida tadqiqotlar olib borish va materiallar tayyorlash, so'ngra amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishdan iborat. Uning mazmuni nomiga mos bo'lib – uy vazifasini sinfda, sinf vazifasini uyda bajarishda namoyon bo'ladi[3].



Bu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilarda Blum taksonomiyasining quyi: eslab qolish, tushunish, amalda va yuqori: tahlil qilish, baholash, yaratish kabi barcha darajalarini amalga oshirish imkoniyati namoyon bo'ladi. O'quvchilar uyda o'qituvchi tomonidan yaratilgan darsni online o'rganadi va xotirasida eslab qoladi. Ular maktabda o'qituvchi yordamida sinfdoshlari bilan loyiha asosida ishlashadi va muhokama qilishadi. Bu bilan o'quvchilar maktabda ko'proq

o'ylashga o'rgatiladi. Ya'ni sinfda o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashadi, tahlil qilishadi, to'g'ri yoki noto'g'ri, yaxshi-yomonga ajratib baholashadi va so'ngida egallangan bilimlar elementlarini yangicha shaklda qo'yish asosida yangi bir loyiha yaratishadi. Bu jarayon quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Project-based learning (PBL) - Loyihaga asoslangan yondashuv - Ingliz tilini o'rgatishning yana bir muvaffaqiyatli usuli o'qitish jarayonini loyiha va loyiha faoliyatiga asoslashdir. Usul dastlab o'rta maktab o'quvchilari va professional kattalar uchun ishlatilgan, ammo so'nggi 10 yil ichida o'qituvchilar undan kichik yoshdagi bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarda ham foydalanishni boshladilar.



Bu usul o'qish, tinglash, intervyu, ma'lumotlar to'plash, ma'lumotlarni muhokama qilish, muammoni hal qilish, og'zaki va yozma hisobot berish, taqdimot qilish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi texnika taraqqiyoti davrida ma'lumotlarning keskin oshib ketishi, axborot olamining kengayib borayotganligi maktab fanlarining integratsiya asosida o'tilishini ham taqozo etadi. Shunday qilib, ingliz tili fani endi maktablarimizda integratsiyalashgan yondashuv, o'quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, real hayot muloqotiga tayyorlash va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan metodlar asosida o'qitilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda samarali natijaga erishish uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy, yangi metodikalardan foydalanishlari asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov. «Chet til o‘qitish metodikasi». O‘qituvchi NMIU. 2012.
2. Hilary Plass. «Prepare». Teacher’s book. Cambridge University Press and USLEC. 2021.
3. Yamith Jose Fandino Parra. «21st Century Skills and the English Foreign Language Classroom: A Call for More Awareness in Colombia». ResearchGate. 2013.
4. <https://lex.uz/uz/>
5. <https://www.newsdle.com/blog/most-studied-foreign-languages>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/07/textbooks/>